Жадидларнинг мактаб ва маориф фаолиятидаги ўзига хосликлар

Tangirov A.J.-dotsent,Jizzax DPU

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekiston yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning turli hakllarini izlab topish, mavjud samarali an'analarni saqlab qolish, o'qitishda yangi texnologiyalarni jalb qilish yo'lidan bormoqda. Mazkur maqola xuddi ana shu maqsadga qaratilgan ish bo'lib, unda xalqimizning yaqin tarixidan o'rin olgan ta'lim-tarbiya sohasidagi izlanishlar borasida to'xtab o'tiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Jadid, Ismoil G'aspirali, Maorif, Ta'lim-tarbiya, "Usuli jadid", Rus tuzem maktabi, Eski maktab.

Абстрактный. Сегодня Узбекистан находится на пути поиска различных форм обучения молодого поколения, сохранения существующих эффективных традиций, вовлечения новых технологий в образование. Данная статья представляет собой работу, преследующую ту же цель, в которой будут обсуждаться сследования в области образования из новейшей истории нашего народа.

Ключевые слова: Туркестан, Джадид, Исмаил Гаспирали, Маариф, Образование, «Усули джадид», русская система школы, Старая школа.

Abstract. Today, Uzbekistan is on the way to find different forms of education for the young generation, to preserve existing effective traditions, and to involve new technologies in education. This article is a work aimed at the same goal, in which researches in the field of education from the recent history of our nation will be discussed.

Key words: Turkestan, Jadid, Ismail Gaspirali, Maarif, Education, "Usuli jadid", Russian system school, Old school.

XIX asrning oxiri va XX asr boshida jahon hamjamiyatida jadidlar deb nomlangan ijtimoiy-siyosiy harakat yuzaga keldi. Bu harakat jamiyatdagi barcha

illatlarning bosh omili ilmsizlik deb bildi. SHu boisdan ham ular ilm olish va o'qish o'qitish ishini yanada yaxshilash masalasiga asosiy e'tiborni qaratdi.O'qish va o'qitishni yaxshilash va uni ko'tarish xalqni mamlakatni ozod va erkin ko'rishning bosh omili deb bildi. Xalqni ozod va hur ko'rish uchun ular turkiy bolalarni savodxon qilish, buning uchun yangi usuldagi maktablar ochish, ularda ta'lim olgan bolalarni turli xayriya tashkilotlarining mavlag'i hisobidan xorijiy yetuk oliy ta'lim dargohlarida o'qitib, so'ngra o'zimizda faoliyat yuritishlari kerakligi bosh maqsad qilib qo'ydilar. Bu yo'lda ular mavjud maktab va maorif tizimini isloh qilish zarurligini ko'tarib chiqdilar. Ana shu maqsadga qaratilgan qator yangi maktablar ochishga erishdilar. Mavjud eski maktab tizimidan tamomila farq qiluvchi yangi maktablarning faoliyat yurtishini yo'lga qo'ydilar.

Mazkur maktablarni "Ululi jadid", yoxud "Usuli savtiya" maktablari deb nomladilar. Mazkur maktablar uchun ularning o'zlari darslik hamda qo'llanmalar yaratdilar. SHubhasiz mazkur harakatning boshida ushbu harakatning asosichisi qrim-tatar millati vakili Ismoilbek G'aspirali turdi va u ilk bor ana shu tipdagi maktabga osos soldi. U 1884-yiIda Boqchasaroyda dastlabki "usuli jaded" nomi bilan yangi maktab ochdi. Va u qisqa muddatda keng jamoatchilikning diqqatini tortdi. Bu haqda Ismoilbek G'aspiralining o'zi quyidagilarni ta'kidlaydi: "...1884-sanasi Boqchasaroyda bir maktab(n)i usuli jadidga qo'ymish edim , — deb yozadi Ismoilbek. — Samarasi umidim - dan ziyoda o'ldi. Bir qoch (qancha) maktablar usulim(n)i qabul ila isloh o'ldilar. Soir (ko'p) viloyatlardan usul ko'rniiya (ko'rmakka) kelub-kedanlar o'lub, bu soyada har tarafdan ikki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar..." Ushbu maktab tamom begona bir hodisa emas. Ismoilbek yangi maktabni shunday tushuntiradi: "Ota-bobo kunlarindan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jaded demakdin". 1888-yilda ushbu maktablar uchun birinchi darslik "Xojai sibyon" ("Bolalar muallimi")ni

bosmadan chiqardi. “Usuli jaded”ga bo‘lgan ehtiyojni tushuntirdi. “usuli qadim “dan farqiga e’tiborni qaratdi.

“Xojalara ta’limot” (“Muallimalarga yo‘llanma”) faslida “usuli jaded”ning osondan murakkabga borishini uqdirib, xos xususiyatlarini 15 bandda ko‘rsatib berdi. Unda bolaning eng muvofiq o‘quv yoshi (6—7 yosh) dan tortib, o‘quv soatlarining bolalar yoshiga mutanosib taqsimlanishi lozimligigacha, o‘qish bilan yozishni qo‘shib olib borishdan bir harfni “sadosi bilan” o‘rgatishgacha, darslar orasidagi tanaffusdan imtihongacha, qo‘yingki, bugungi zamonaviy maktablarga xos barcha masalalar qamrab olingan edi. Darslikda har bir mavzudan keyin savollar berilgan bo‘lib, muallif fikricha, ular o‘quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun “buyuk vosita” edi.

Muallif o‘qish-o‘qitishning yangi usuli haqida to‘xtalar ekan, bolalarga mohiyatni

tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga diqqatni qaratadi va har bir harfni alohida “sadosi bilan” muntazam va izchil o‘rgatishni ta’kidlaydi. Ushbu usul shunga ko‘ra “usuli savtiya” (tovush usuli) deb ham ataladi.

Shu tariqa, o‘qitiladigan darsning mazmunidan uni o‘qitish usuli va baholash

jarayonigacha, o‘quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu, qishki va yozgi ta ’tiligacha, maktabning joylashish o‘rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu yorug‘lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko‘rib chiqilib, maktab ta’limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Bu dastur “usuli jaded” nomi bilan shuhrat topdi. “Jadid” atamasining ommalashuvi ham, birinchi navbatda, mana shu “usuli jaded” bilan bog‘langandir. SHundan so’ng Ismoil G’aspirali bu harakatni butun turkiy turkiy dunyoga yoyish harakatini boshlab yubordi.

SHu maqsadda 1893-yili G’aspirali shirvonlik shogirdlaridan *Majid G‘anizoda* bilan Turkistonga yo‘l oldi. Samarqandni tomosha qildi. Amir Abdulahadxon yuborgan faytunga o‘tirib, Shahrisabzni ziyorat qildi. Samarqand va Buxoroda “usuli jaded” maktablari ochdi. Majid G‘anizoda Ismoilbekdan izn olib, Samarqandda 40 kun qoldi va “usuli savtiya” o‘rgatdi.

1895—1901-yillarda Toshkentda to ‘rtta usuli jadid maktabi tashkil topgan edi. 1900-yili Andijonda ochildi... Bularning ma’lum qismi tatar maktablari edi.

Hukumat tubjoy xalqning ko‘zi ochilishiga qattiq qarshilik ko‘rsatib bordi. Jumladan, 1901-yili Munavvarqorining, 1904-yilda Avloniyning “usuli jaded” maktabi ochish haqidagi arizalari bir necha bor rad etildi.

Xuddi shu yillarda Tukristonda o’sha zamon maorif tizimining ikkinchi shakli, ya’ni rus-tuzem maktablarining ochilishiga ham katta e’tibor berildi. Rusiya hukumati bunday maktablarning ochilishi va faoliyat yuritishiga zo‘r berdi. Uni mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy vosita deb qaradilar. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yilning 19-dekabrida Toshkentda tashkil etildi. 1891-yili Xivada , 1892-yilda Turkiston o‘lkasidagi rus-tuzem maktablarining soni 21 taga yetgan. 1894-yili Buxoroda ham rus -tuzem tashkil qilindi. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 170 rus-tuzem maktabi bor edi.

Mahalliy xalqni ruslashtirish, ajdodlarning tarixi va madaniyatini millat xotirasidan

siqib chiqarishni ko‘zda tutgan ushbu boshlang‘ich rus maktablarini hukumat qancha rag‘batlantirmasin, turmushga singib keta olmadi.

Hukumat bu maktablarda dars berish uchun e’tiborli mahalliy ziyolilarni jalb

qilishga urindi. Shundaylardan biri 1917- yilga qadar salkam 20 marta chop etilgan “Ustozi avval” darsligining muallifi *Saidrasul Aziziy* (1866—1933) edi. Lekin xalq Aziziyni u qadar xushlamadi, “nasoro maxsum”, “kofir maxsum” deb atadi.

Shunga qaramay, ijodkor ziyolilarimizning muayyan qismi ushbu rus-tuzem

maktablarida ta’lim olganlar. Yoshlar jadid maktablariga katta umid bilan kiradilar. Ziyolilarimiz barcha qiyinchiliklarga qaramay, “usuli savtiya” maktablari ochishga zo‘r berdilar. Bu ishlar ko‘pincha juda katta fidoyiliklar evaziga amalga oshirildi.

Chunonchi, 1917-yilda Turkistonda 92 usuli jadid maktabi faoliyat yuritgani ma’lum. Mazkur maktablarda fodylanish uchun o’nlab darslik va qo’llanmalar yaratildi hamda chop etilib, “Usuli jadid”

maktablarida foydalanildi. Jum ladan, 1907—10- yillarda Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklari, Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” majmuasi, “Birinchi muallim”, “Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom”, Buxoroda Ayniyning “Tahzibus sibyon” kitoblari dunyo ko‘rdi. 1911-13-yillarda ular yoniga Rustambek Yusufbekovning “Ta’limi avval”, “Ta’limi soniy”si, Munavvarqorining “Havoyiji diniya”, “Yer yuzi” (jug‘rofiya) qo‘qonlik Mirzo Xayrulloxonning “Tuhfat ul-atfol”, buxorolik Abdurauf Fitratning “Muxtasar tarixi islom”, namanganlik Abdurazzoq bin Mirzaqorining “Miftoh ul-avval”, samarqandlik Abdulmo‘minxo‘ja Eshon o‘g‘lining “Nasoyih ul-atfol”, Avloniyning “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, Qori Muhammad Rahimboyning “Ne’mat ul-islom”, SiddiqiyAjziyning “Tajvid al-qur’on” kabi ko‘plab kitoblari qo‘shildi. Ayrim darsliklarimiz (Muxtor Bakir, “Savod”, 1913) Qozonda chop etildi. O’tgan asrning 17—20-yillardag ham usuli jadid maktablari faoliyati to‘xtab qolmadi, darsliklar chop etish davom etdi. Eskilar qayta bosildi, yangi nashrlar paydo bo‘ldi. Fitratning “Muxtasar tarixi islom” (1915), “O‘quv”(1917), Ashurali Zohiriyning “Imlo”(1916), Shokiijon Rahimiyning “Sovg‘a” (1919), “Kattalarga o‘qish” (1920), “O‘zbek alifbosi” (1922) kabilari shundaylardan edi. Nihoyat, Hamzaning “Yengil adabiyot” (1914), “Qiroat kitobi” (1915), Avloniyning “Uchinchi muallim” kabi maktablarda o‘qitilgan, lekin turli sabablar bilan bosilmay qolgan darsliklarini ham bular qatoriga qo‘shish mumkin.

Xullas, XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistonda nafaqat ijtimoiy-siyosiy jarayon, qolaversa, maorif tizimida ham o’ta alg’ov dalg’ovli voqealar yuz berdi. Bu davrda bir vaktning o’zida uch xil o’qish-o’qitish tizimi o’lkada faoliyat yuritdi. Bular an’anaviy Eski maktab, Rus tuzem maktabi va biz bugun tilga olgan “Usuli jadid” maktabi kabilardir. Bular orasida “usuli jadid” maktabi o’zining millatparvarligi, el-yurt taraqqiyotini ta’minlashga qaratilganligi bilan tarix sahifasida munosib o’rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash,
Toshkent, 1999
2. Rajabova R. va boshqalar, O‘zbekiston tarixi (1917-1993-yillar), Toshkent, 1994
3. N .Karimov . Turkiston muxtoriyati. - T.: 1996;. Qimmatga tushgan ulov yoxud
Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishi va tor-mor etilishi sabablari. “Tafakkur”j.,1996, 3-son.